

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN FOYDALI
QAZILMALARNI BOYITISH VA QAYTA ISHLASH FANIDAN MALAKA
TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN FOYDALI QAZILMALARNI BOYITISH VA QAYTA ISHLASH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Foydali qazilmalarni boyitishga tayyorlash

1. Yanchish jarayoni jihozlari va ularning tuzilishi;
2. Boyitish fabrikasida tayyorlash jarayonlari;
3. Maydalagichlarga texnik xizmat ko‘rsatish;
4. Maydalash jarayonlari jihozlari va mashinalaridan foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Yanchish jarayoni jihozlari va ularning tuzilishi	Yanchish jarayonlarida ishlatiladigan jihozlarni asosan tegirmonlar ishlatiladi ular o'zida-o'zini yanchuvchi tegirmonlar tuzilishi va ishlash tartibi, sterjenli tegirmonlar tuzilishi va ishlash tartibi, sharli tegirmonlar tuzilishi va ishlash tartibi bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi lozim.	10 ta
2	Boyitish fabrikasida tayyorlash jarayonlari	Boyitish fabrikalarida tayyorlash jarayonlari, boyitishning texnologik ko'rsatkichlari, rudalarning granulometrik tarkibini, elash, maydalash, yanchish, sinflash jarayonlarini biladi, boyitish fabrikalarida texnologik uskunalar tarkibini, zamonaviy dastgohlar bilan ishlash, ularning turlari va vazifalari haqida bilimlarga ega bo'lishi.	14 ta
3	Maydalagichlarga texnik xizmat ko'rsatish	Boyitish fabrikalarida ishlatiladigan jag'li, yirik maydalovchi konusli, o'rta maydalovchi konusli, mayda – maydalovchi konusli maydalagichlar rotorli, zarbli maydalagichlarga texnik xizmat ko'rsatish ularning turlari va vazifalari haqida bilimlarga ega bo'lishi.	6 ta
4	Maydalash jarayonlari jihozlari va mashinalaridan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish	Maydalash jarayonlari, maydalash darajasi, maydalash bosqichlari, maydalash qonunlari, maydalash sxemalari, maydalash jihozlari va mashinalaridan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish ularning turlari va vazifalari haqida bilimlarga ega bo'lishi	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%

2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Salijonova G.Q. Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash. Darslik. — T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

2. Salijanova G.Q., Umarova I.K., Mutalova M.A. Foydali qazilmalarni boyitishga tayyorlash jarayonlari. Darslik. — T.: Nodirabegim, 2023.

3. Umarova I.K., Axmedov X., G.Q. Salijanova Rangliva nodir metallar ma'danlarining boyituvchanligini o'rganish. Monografiya NODIRABEGIM" 2019
4. Umarova I.K., Aminjanova S.I., G.Q. Salijanova Mis-molibdenli va qo'rg'oshin-ruxli madanlarning boyitiluvchanligini o'rganish Monografiya NODIRABEGIM" 2021
5. Umarova I.K., Solijonova Foydali qazilmalarni boyitishga tayyorlash jarayonlari. O'quv qo'llanma .-T.: TDTU, 2015
6. Арашкевич В.М. Основы обогащения руд. Учебник. М., Недра, 2004
7. Адамов Э.В. Обогащение руд светных металлов. М., Недра,1992.
8. Вайсберг В.М.- Обогащение руд. Учебник 1997, №1, с.18-22.
9. Карамзин В.И., Карамзин В.В. Магнитные методы обогащения. Учебник М., Недра,1984.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*